

**BOSMA VA INTERNET NASHRLARIDA SIYOSIY SHAXS
REPREZENTATSIYASI: MUALLIF “MEN”I VA INTERPRETATSIYA
MEKANIZMI**

Yorqinoy KOMILOVA

katta o‘qituvchi
filologiya fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalar universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
Yorqinoy.Komilova1988@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada bosma va internet nashrlarida siyosiy shaxslar reprezentatsiyasini shakllantirishda muallif “Men”ining o‘rni, ahamiyati nazariy hamda amaliy jihatdan tadqiq etilgan. Unda muallif pozitsiyasining mediamatnda namoyon bo‘lish mexanizmlari, fakt va tahlil o‘rtasidagi munosabat, siyosiy portretni yaratishda interpretatsiya usullarining o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan.

Shuningdek, “Men” konsepsiyasining kognitiv asoslari, iyerarxik tuzilmasi hamda uning global “Men”, real, ideal, ko‘zguli “Men”; aqliy, emotsional va jismoniy “Men” kabi turlari tahlil qilinib, jurnalistik matndagi ifodasi ochib berilgan. Milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari materiallari misolida siyosiy yetakchilar obrazini yaratishda muallif pozitsiyasi, uslubi va yondashuvining o‘ziga xos xususiyatlari qiyosiy ko‘rib chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: siyosiy portret, yetakchi, muallif “Men”i, real “Men”, ideal “Men”, ko‘zguli “Men”, aqliy “Men”, emotsional “Men” va jismoniy “Men”

**РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ ЛИЧНОСТИ В ПЕЧАТНЫХ И
ИНТЕРНЕТ-ИЗДАНИЯХ: АВТОРСКОЕ «Я» И МЕХАНИЗМЫ
ИНТЕРПРЕТАЦИИ**

Ёркиной КОМИЛОВА

старший преподаватель
доктор философии по (PhD) филологическим наукам
Университет журналистики и
массовых коммуникаций Узбекистана
Ташкент, Узбекистан
Yorqinoy.Komilova1988@gmail.com

Аннотация

В данной научной статье теоретически и практически рассматривается роль и значение авторского «Я» в формировании образа политических деятелей в печатных и онлайн-публикациях. Изучаются механизмы проявления авторской позиции в медиатексте, взаимосвязь факта и анализа, а также специфические аспекты методов интерпретации при создании политического портрета.

Также анализируются познавательные основы понятия «Я», его иерархическая структура и типы, такие как глобальное «Я», реальное «Я»,

идеальное «Я», зеркальное «Я», ментальное, эмоциональное и физическое «Я», и раскрывается их выражение в журналистских текстах. На примере материалов из национальных и зарубежных СМИ сравнительно рассматриваются специфические особенности авторской позиции, стиля и подхода при создании образа политических лидеров.

Ключевые слова: политический портрет, лидер, авторское «Я», реальное «Я», идеальное «Я», зеркальное «Я», ментальное «Я», эмоциональное «Я» и физическое «Я».

Muallif “Men”i – muallifning mavzuni yoritish jarayonida yuzaga chiqadigan nuqtayi nazari, muammolarni o‘rganish va tahlil qilishda shaxsiy qarashi, o‘ziga xos pozitsiyasini namoyon qiladigan keng dunyoqarashi, tafakkur sarhadlari orqali mavzuni turli rakurslarda ko‘ra olish mahorati, mamlakat va jamiyat hayotiga ta’sir qila oladigan o‘z “imzo”siga ega qat’iyatli shaxsning ijod mahsulidir. Shu jihatdan, “Har bir publitsistik asarda so‘z yuritilayotgan muammoga nisbatan muallif “Men”i bo‘rtib ko‘rinib turishi kerak” [9]. “Inson o‘zligini anglashi, bilishi, tushunishi” [8]da uning “Men”i aniqlashib boradi va bu kognitiv jarayon bilan bog‘liq.

“*Kognitiv* so‘zi inglizcha “cognition” so‘zidan olingan bo‘lib, “bilmoq”, “tushunmoq” [5] mazmunini bildiradi. Inson anglash jarayonida “Men”ini topadi. Biroq ayrim hollarda “Men” – asliy “Men” va niqobli “Men” sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday turlanish OAVga ko‘chganida mavzu tahlilida noaniqlik kuzatilib, shaffof yondashuvga “soya” soladi. Ya’ni, “muallif mavzuning panasida qolib ketgan nuqtayi nazari, “Men”i fakt va raqamlar girdobiga g‘arq bo‘lib ketgan maqolalar ko‘p uchraydi” [9].

Muallif avvalo, jamiyat uchun dolzarb masalalarni tahlil etishi, muammoning yechimiga xizmat qiladigan fikr, uning amaliy harakatiga turtki beradigan vositalarini ochiq-oshkora ifodalashi shart. Maqola mazmunida o‘zini topa olmayotgan, so‘zining muqaddimasi, asosi, yakuni, xulosasini aniq tasavvur qila olmayotgan jurnalist, jamoatchilikka raqamlardan boshqa hech nima bera olmaydi. Bu xuddi, bo‘shliqqa qarab so‘z aytish bilan barobar. Shuning uchun mavzuga yondashuvda “Men”ning ifodaviy maqsadini belgilash, buni aynan OAVda qo‘llash shakli va mazmuni, yo‘nalishini aniq tanlash muhim.

Tadqiqotchi R.Berns “Men” – konsepsiyani iyerarxik tuzilma ko‘rinishida tasavvur qiladi. “Men” tushunchasini mazmunan: “global Men”, “real Men”, “ideal Men”, “ko‘zguli Men”, “jismoniy Men”, “aqliy Men”, “emotsional Men” [6;261] singari turlarini tasniflaydi. Mazkur keltirilgan “Men” so‘zining tasniflanishi har bir inson ichki olamida aks etadi. Faqat buning namoyon bo‘lishi turli vaziyat, maqsadlar asosida yuzaga chiqadi, aniqlashadi. Demak, “Men” mohiyati inson shaxsiyatining namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq ekan.

Global “Men” – “Men” konsepsiyasining cho‘qqisida turadi. U shaxsning o‘ziga nisbatan bo‘lgan talablarining to‘plamida konkretlashadi. Inson o‘zini tushunishi, istak, maqsadlarini aniqlashtira olishi, shaxs sifatida shakllanishi, bunga xizmat qiladigan “Men” jihatlarini tutashtiruvchi nuqtasini anglashida yuzaga chiqadi.

Real “Men” – haqiqatda “Men” qanday ko‘rinaman mazmunini bildiradi. Inson asliyatini uning har bir xatti-harakatida beixtiyoriy aks etadi. Mazkur “Men” konsepsiyasi shaxsning o‘zligini, hech kimda uchramaydigan ichki dunyosini haqiqiy holatda ko‘rsatadi. *Ideal “Men”* – qanday bo‘lishni xohlar edim mohiyatini bildirib, inson “Men”ini shakllantirish, sayqallab, rivojlantirishdan iborat. Inson jamiyatdagi turli ideal shaxslarda kuzatilgan sifatlarni birlashtirib, ideal “Men” fazilatlarini o‘zida ifoda etadi. Shu jihatdan, ushbu “Men” mohiyati inson va jamiyatdagi shaxslararo munosabat asosida yuzaga keladi. Ideal “Men” muhim qarorlarni qabul qilishda tayanch omil bo‘lib xizmat qiladi.

Ko‘zguli “Men” – bunda inson “Men”ini namoyon qilganida, atrofdagilar munosabati, e‘tiborini tahlil qiladi. Jamoatchilik orasida o‘ziga nisbatan berilayotgan ta‘rif, fikrlar asosida o‘z xarakterini ko‘zguda ko‘rib, xulosa qiladi.

Aqliy “Men” – insonning bilimi, tafakkuri, dunyoqarashini umumiyashtirib, uning kamolotini aks ettiradi.

Emotsional “Men” – voqea-hodisalardan ta‘sirlanish, hissiyotini yaqqol aks ettirish, bu orqali ko‘tarilgan mavzuning dolzarbligini bildirib, befarq emasligini tuyg‘ulari bilan isbotlashdir. Hissiy “Men” insondan insonga tez

o'tishi, kuchli hayajonga solishi, qamrov darajasining ortishi bilan muhim hisoblanadi.

Jismoniy "Men" – inson xarakteridagi kuch-qudrat, ishonch, qat'iyat, tezkorlik, faollik, kurashuvchanlik kabi jismoniy va ruhiy tayyorgarlikni namoyon qiladi. Inson irodasini sinovdan o'tishi, toblanishi, yuksalib borishi jismoniy "Men" maqsadini tashkil qiladi.

Shaxsiy rivojlanishda jamiyatdagi fikrlar xilma-xilligi, qarama-qarshiliklar ta'sir ko'rsatadi. Bunday sinovlar maydoni insonni lider yoki olomonga aylantiradi. Shu jihatdan yuqoridagi tasnifi keltirilgan "Men" konsepsiyasining barcha turlari har bir insonning hayotiy va kasbiy faoliyatida amaliy harakatda. OAVda muallifning "Men"i yaqqol aks etgan materiallar ijtimoiy fikrni shakllantirishga xizmat qiladi. Binobarin, yetakchilarning siyosiy portretini namoyon qilishda, uning xarakterini ochib beradigan xatti-harakati, ichki va tashqi siyosatdagi pozitsiyasi asos vazifasini bajaradi. Siyosiy arbob "Men"ini yorqin tasvirlashda muallifning ziyrakligi, kuzatuvchanligi, siyosiy darajasi va ifodalash mahorati muhim o'rin tutadi:

"Tekshirish va tanqid: OAV yetakchilarning noto'g'ri harakatlari yoki kamchiliklarini fosh qilishi mumkin.

Qo'riqchi roli: jurnalistlar siyosiy arboblarning xatti-harakatlari haqida jamoatchilikni xabardor qilish va ularni o'z va'dalarini bajarmaganligi uchun javobgarlikka tortishda muhim rol o'ynaydi.

Ommalashtirish: massmedia muayyan mavzular asosida jamoatchilik fikrini uyg'otishi, bu orqali siyosatchilar qaysi masalalarga ustuvor ahamiyat berishiga ta'sir qilishi mumkin" [10].

Yuqoridagi fikrlar bir qator milliy va xorijiy olimlar, tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, R. Freyjer, D. Feydimen, D. Skribikina, O. Yakimov, shuningdek, O. Sharofiddinov, X. Do'stmuhammad, A. Meliboyev, D. Abdullayeva, K. Ermamatovalar shular jumlasidandir. Shuningdek, xorijiy va milliy nashrlardan "The Atlantic", "The New York", "Rudn journal of political science", "Vestnik RGGU", "Fuqarolik jamiyati" kabi mediada yetakchilar

siyosati, hayoti, boshqaruviga oid turli mazmundagi maqolalar chop etilgan. Mazkur materiallarda mualliflarning pozitsiyasi, liderlar haqida ma'lumotlarni tahlil qilish darajasi, tafakkuri, huquqiy bilimi ham bir-biridan tubdan farqlanishiga guvoh bo'ldik. Demak, muallif "Men"i yaqqol ifodalanishida qonun ustuvorligini ta'minlash asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Axborot olish kafolatlari va erkinligi to'g'risida"gi qonuni 10-moddasida "OAV axborot manbaini va taxallusini qo'ygan muallif kimligini uning roziligisiz oshkor etishga haqli emas. Axborot manbai yoki muallifning kimligi faqat sud qarori bilan oshkor qilinadi [2] deb keltirilgan.

Medianing xolislik prinsipi jurnalistni ijodiy jarayonni tashkil etishi, mavzu doirasida ma'lumotlar yig'ishi, material tayyorlashi, auditoriyaga havola qilishi, qonuniy asosda ishlashi, nafaqat ushbu moddani ijrosini bajarishida, balki muallifning xavfsizligi, huquqlari ta'minlanganini kafolatlaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 82-moddasida senzura yo'l qo'yilmaydi [1] deb qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni 4-moddasida "Hech kim jurnalistdan e'lon qilinayotgan xabarlar yoki materiallar oldindan kelishib olinishini, ularning matni o'zgartirilishini yoxud nashrdan butunlay olib tashlanishini (efirga berilmasligini) talab qilish huquqiga ega emas" [3] deb qayd etilgan.

Mazkur qonuniy asoslar muallif "Men"ini qo'llashda huquqiy tayanch bo'lsa-da, muallif yana bir muhim masalaga e'tibor qaratishi zarur. Ya'ni siyosiy shaxs haqida material tayyorlashda faqat mutaxassis sifatida yondashadi, shaxsiy adovati, munosabatini aralashtirmaydi, xolis pozitsiyada turadi. Siyosiy arboblarning xususidagi materiallarda muallif "Men"i yaqqol aks etishida uning yetakchini o'rganganlik darajasi muhim sanaladi. Bunda, fakt-cheking asosida ma'lumotlarni aniqlashtirishi, tahlil jarayonida o'z mulohazalarini manbalar bilan asoslashi, metodlardan foydalanish ko'nikmasi, uslubni tanlash va bayon qilish mahorati zarur. Quyida muallif "Men"ini amaliy misollar orqali ko'rib chiqamiz.

“Kun.uz” internet nashrida “Shavkat Mirziyoyev ilk marta o‘zbekistonlik jurnalistlarga intervyu berdi” nomli intervyusi e‘lon qilindi. Material foto, video vositalar bilan boyitilgan bo‘lib, unda “kun.uz” muxbiri Prezident Shavkat Mirziyoyevga xalqni rozi qilish borasidagi sa‘y-harakatlar va islohotlarni amalga oshirishda to‘siq bo‘layotgan sabablar xususida savol bilan murojaat qiladi. Jurnalistga Prezident quyidagicha javob bergan: *“Vazirlarni tez o‘zgartiryapman, sababi aravani torta olmayapti. Demak, birinchi masala bu – kadrlar. Bizning oyog‘imizga kishan bo‘layotgan ikkinchi muammo bu – korrupsiya. Ommaviy axborot vositalari xodimlari – mening yordamchim. Mavjud muammolarni ro‘y-rost yoritishlaring kerak”* [4]. “Kun.uz” muxbirining savoli odatiy savollardan farq qilgani bois, O‘zbekiston Prezidentini o‘ylantirayotgan muammolarni yuzaga chiqardi. Muallif “Men”i savollarda qisman aks etayotgani auditoriyani quvontiradi. Ammo biz yuqorida ko‘rib chiqqan “Men” konsepsiyasi iyerarxiasini to‘laqonli ifodalay oladigan materillar yetarli emas. Ahamiyatli jihati shundaki, internet nashrlarida materiallarning video formatda taqdim etilishi auditoriyaning ko‘rishlilik darajasini oshirgan.

“Аргументы и факты” nashrida *“Putin Irina Kupchenkoni yubileyda tabrikladi”* sarlavhali xabar chop etiladi. Muallif Valeriya Nelyubova murakkab sharoitda Rossiya Prezidenti Vladimir Putin tomonidan davlat va jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo‘shgan shaxslarni unutmaganligi, ularga e‘tibor qaratishi, ehtirom ko‘rsatishi yetakchining yuksak fazilat egasi ekanligiga urg‘u beradi. Muallif materialda Rossiya Prezidenti Vladimir Putinning *“Hurmatli Irina Petrovna! Yubiley tug‘ilgan kuningiz bilan samimiy tabriklayman”* [7] degan qutlovini Kreml matbuot xizmatiga tayanib keltiradi. Unda aktrisaning umri davomida ijodiy faoliyati, rollari, muvaffaqiyati, Rossiya san‘atiga qo‘shgan hissasi haqida ma‘lumotlar beriladi. Muallif davlat rahbarining murakkab vaziyatda ham har bir masalaga e‘tiborli ekanini keltirib, nuqtayi nazarini qisqa, ammo aniq ifodalaydi. Ushbu fikrlar Vladimir Putinning siyosatchi sifatidagi portretini auditoriya qarshisida ijobiy tasavvur uyg‘otishiga xizmat qiladi. Bu ham jurnalistning siyosiy bilimi, pozitsiyasini bildiradi.

Yuqoridagi fikrlar asosida paragraf yuzasidan quyidagicha xulosa qilish mumkinki, “Men” konsepsiyani iyerarxik tuzilmasi, yetakchining qiyofasini ochib berilishida “global Men”, “real Men”, “ideal Men”, “ko‘zguli Men”, “jismoniy Men”, “aqliy Men”, “emotsional Men” tushunchalarining mazmuni o‘rganildi. Mazkur tushunchalarning muallif “Men”i va yetakchi “Men”ini yaqqol tasvirlashdagi ta’siri, yetakchilar xususidagi materiallarni yoritishda “Men” ifodalarining talqini tahlil etildi.

Muallif “Men”ining erkin va tobeligi material mazmuni, maqsadi, izchilligi, auditoriyani munosabatiga jiddiy ta’sir etadi. Ayniqsa, davlat rahbarlarining hayoti va faoliyatiga doir ijod namunasi shaffof, siyosiy tahlil asosida yoritilishi shart. Jurnalistlar berayotgan ma’lumotlar milliy va jahon maydonida, nafaqat yetakchi haqida turli qarashlarni yuzaga chiqaradi, balki mamlakatning huquqiy va demokratik boshqaruvidan dalolat beradi.

Lider siyosiy portretini gavdalantirish har bir muallifga mas’uliyat yuklaydi. Shu bois jurnalist siyosiy shaxs portretini tasvirlashda ikki xil tanlovdan birini amalga oshiradi. Birinchidan, yetakchini asliy siyosiy portretini yoritish va bu orqali muallif “Men”ini to‘liq ko‘rsata olish. Ikkinchidan, liderning noasliy qiyofasini ifodalash. Ya’ni, jamoatchilikka ideal obrazda havola qilish. Bunda muallif “Men”i tobelashib, siyosiy arbob portretini andozalar asosida tasvirlaydi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mualliflar tomonidan yaratilgan siyosiy portret materiallari lider va auditoriya o‘rtasida uzviylikni ta’minlab, kommunikatsiyani yuzaga keltiradi. Mazmunan boy va ta’sirchan, xalqchil siyosiy portret namunalarini yaratishda konstruktiv vositalardan gibrid shaklda foydalanish muallif “Men”i, uslubi, mahoratidan darak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Yangi tahrir. – 2023-yil 1-may. – URL: <https://lex.uz/docs/6445145> (murojaat sanasi: 09.05.2023).
2. O‘zbekiston Respublikasining “Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida”gi Qonuni. – № 400-I-son. – 1997-yil 24-aprel (10-moddasi). – URL: <https://lex.uz/docs/1319> (murojaat sanasi: 13.03.2023).

3. O‘zbekiston Respublikasining “Jurnalistlik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun. – № 402-I. – 1997-yil 24-aprel (4-modda). – <https://lex.uz/ru/docs/9540?ONDATE=26.04.1997> (murojaat sanasi: 16.10.2022).
4. Shavkat Mirziyoyev ilk marta o‘zbekistonlik jurnalistlarga intervyu berdi. “Kun.uz” muxbiri islohotlarga to‘siqlar haqida so‘radi. – <https://kun.uz/kr/27434763?q=%2F27434763> (murojaat sanasi: 12.11.2023).
5. Алимов Б. Замонавий медиа муҳитда мамлакат имижининг когнитив аспектлари. – URL: <https://beruniyalimov.uz/archives/511> (murojaat sanasi: 23.02.2023).
6. Alimov X. Psixologiyada “Men” konsepsiya va tasavvuf // Молодой ученый, 2021. – № 11 (353). – В. 261. – URL: <https://moluch.ru/archive/353/79078/> (murojaat sanasi: 15.09.2022).
7. Нелюбова В. Путин поздравил с юбилеем актрису Ирину Купченко // Аргументы и факты. – https://aif.ru/culture/person/putin_pozdravil_s_yubileem_aktrisu_irinu_kupchenko (дата обращения: 01.03.2023).
8. To‘laganova S. XXI asr romanini Nazar Eshonqul yozsa kerak. – URL: <https://www.oyina.uz/kiril/article/889> (мурожаат санаси: 09.05.2023).
9. Qurbonova S. Xurshid Do‘stmuhammad: muallif nuqtai nazari tahlilda ko‘rinadi // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – 2010. – №17.
10. URL: <https://gemini.google.com/app/1b7fe40cd53101cb> (murojaat sanasi: 30.01.2023).